

ОГУНА ИДЕСИМ
882

ERKATOY

Bolaligim — poshsholigim!

№8(12). 2014 y.
август



Биз доимо биргамиз!

Sevmay bo'ladimi, shunday Vatanni!

*Kelajakda nigohim, kelajakdan qolmasman,
Xalqimga xizmat qilgum, charchamasman, tolmasman.
Vatan uchun, xalqim uchun jonim ham bo'lsin fido,
O'z yurtimni hatto-ki jannahlarga bermasman.*

Assalomu alaykum jondan aziz, shirindan-shakar, qalbi qaynoq bolajonlar! Barchangizni O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma uch yillik bayrami bilan chin qalbdan muborakbod etamiz. Mana shunday osmoni tinch, xalqi farovon yurda nafas olib, yashayotganimizdan doimo faxrlanishimiz lozim. Yurtboshimiz tomonidan siz bolalar uchun qanchadan-qancha imkoniyatlar eshigi ochib berilmoqda. Shunday ekan, vatanga munosib farzand bo'lib, kamol topib, O'zbekiston nomini butun jahonga tanitmog'imiz shart. Buning uchun siz aziz bolajonlardan a'lo baholarga o'qish, doimo izlanishda bo'lish talab etiladi. Biz ishonch bilan aytolamizki, siz hamisha a'lo baholarga o'qiysiz va vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarasiz.

Aziz bolajonlar, mustaqillik bayrami qutlug' bo'lsin!



SOG'LOM BOLA BO'LAMIZ

♩=100

O-na Va-tan bag'-ri-da

O-ta - o-na bax ti-ga Meh ri-hos-lar meh-ri-ga Lab-hay de-sak yax-shi-lar

Ona vatan bag‘rida,
Ota-oná baxtiga.
Mehribonlar mehriga,
Labbay, desak yaxshida.

Bobolarni etib shod,
Yodga olsak uchar ot.
Ajdodlarga munosib,
Bo‘laylik dono avlod.

Ko‘zları nam emasmız,
G‘amxo‘r ko‘p, g‘am yemasmız.
O‘zbekiston sog‘lom yurt,
Hech kimdan kam emasmız.

Kuylab-yayrab chopamız,
Nurli yo‘llar topamız.
Boshimizni silagan,
Bor bo‘lsin yurt otamız.

Naqorat:

Sog‘lom bola bo‘lamiz,
Polvon bola bo‘lamiz.
Ulg‘ayib hur vatanga,
Qalqon bola bo‘lamiz.



KELAJAK YULDIZLARI

Jurnalning ushbu sahifasida "Bulbulcha" ashula va raqs ansamblining ajoyib raqqosalari, go'zal qizaloqlarimiz bilan tanishhasiz.



SABRINA

Sabina va Sabrina. Ular raqsda ajoyib juftlik yaratishadi, doimo bir-birini to'ldirib turadi, deydi ustozi Noila Artiqova. Kichkina qizimiz Sabrinaning musiqani his qila olishi uning raqs o'r ganishiga yengillik yaratdi. Undan tashqari opasi Sabina ham unga yaqindan yordam berdi. "Istiqlol" san'at saroyida berilgan konsert dasturida Sabina va Sabrina ajoyib juftlik raqsini yaratib, muxlislar olqishiga sazovor bo'ldi. Sabrina Rustambekova 2006 yil, Sabrina Ma'rupova 2001 yil Toshkent shahrida tug'ilishgan.

Bugungi kungacha bu qizaloqlarimiz bir qancha Respublika tanlovlari da ishtirok etib, faxrli o'rirlarni qo'lga kiritishgan. Yurtimizdagi katta-katta sahnalarni zabit etayotgan shogirdchalarim kelajakda xalqimiz san'atini dunyoga tanitishni maqsad qilganligi meni juda xursand qiladi, deya so'zini yakunladi Noila Artiqova.

Biz ham qizaloqlarimizga doimo omadlar tilab qolamiz.



SABINA

Bir kuni o'rmonda fil bilan maymun bahslashib qolishibdi.

—Men kattaman. Kuchim ham ko'p. Daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlay olaman. Sening qo'lingdan nima keladi?

—Men sendan ko'ra chaqqonman. Istagan daraxtga chiga olaman. Daraxtning shoxiga dumim bilan osilib o'ynayman. Sen shunday qila olasanmi?

Ular o'zlarini maqtab, bir-birini yerga urib zerikishibdi. Nihoyat bu masalani ajrim qilib berish uchun ukkining oldiga borishibdi.

—Bizning fikrimiz bir joydan chiqmayapti. Qani, xolis ayt-



Fil bilan Maymun

chi, kuch yaxshimi, epchillikmi? — deb so'rashibdi.

Ularning maqtanchoqligini ko'rgan ukki:

—Buni oldin sinab ko'rish kerak, — debdi. — Mana bu daryoning naryog'ida bir tup olma daraxti bor. Sizlar borib shu olmadan menga ikki dona olib kelib beringlar. Men shunga qarab ajrim qilaman.

Fil bilan maymun yo'lga tushishibdi. Ammo pishqirib oqayotgan daryodan o'tishga maymunning yuragi betlamabdi.

—Ke, ustimga minib ol, — debdi fil g'urur bilan. — Men kattaman kuchim ham ko'p. Bunday suvdan kechib o'tish menga hech gap emas.

Maymun filga minib daryodan o'tibdi. Ular ukki aytgan olma tagiga kelishibdi. Biroq olma daraxti shu qadar katta, baland o'sgan ekanki, uning mevalarini pastdan turib terish mumkin emas ekan. Fil daraxtni ildizi bilan sug'urib olmoqchi bo'libdi. Ammo kuchi yetmabdi.

—To'xta, behuda urinma, — debdi

maymun maqtanchoqliq bilan. — Bu ish faqat mening qo'limdan keladi. Mana qarab tur, debdi maymun pildiraganicha daraxt tepasiga chiqar ekan.


Maymun chiqib eng yaxshi pishgan olmalarni terib pastga tashlayveribdi. Fil ularni ilib olib bir joyga to'plabdi. Ular olmalarni olib yana ilgarigi yo'l bilan daryodan o'tishibdi. Ukkining oldiga borib, olib kelgan olmalarni qo'yishibdi.

—Xo'sh, kuch yaxshi ekanmi, epchillikmi? — deb so'rabdi ukki.

—Albatta kuch-qudrat yaxshi, — debdi fil.

—Hammasidan epchillik yaxshi, — deb yana o'z gapini ma'qullabdi maymun.

—Faqatgina kuch yoki epchillik yaxshi deb bo'lmaydi, — debdi ukki. —Sizlar bir-biringizning yordamingizsiz olmani olib kelolmas edinglar. Daryodan filning kuch-qudrati tufayli o'tdinglar. Olmani maymunnig epchilligi bilan terib oldinglar. Demak kuch bilan epchillik birlashgani yaxshi ekan.



"TOYS" DIALOGUE

A toy is a thing to play with. Akmal has ten soldiers.

Boy: What are you doing Akmal?


Akmal: I am playing

Boy: What are you playing with?


Akmal: I am playing with my ten soldiers. Let's play together.

Boy: What about Nafisa?

Akmal: She is playing with her dolls.

**POEM**

Jump-jump-jump-
Jump over the moon,
Jump all the morning,
And all the noon.
Jump-jump-jump-
Over the sea,
What wonderful wonders
We shall see!
Jump-jump-jump-
Jump far away,
And all come home
Some other day.

**ANSWER THE QUESTION**

1. What do we see with?
We see with our ...

2. What do we hear with?
We hear with our ...

3. What do we smell and breathe with?
We smell and breath with our ...

4. What do we eat and talk with?
We eat and talk with our ...

5. What do we walk with?
We walk with our ...

THINGS YOU SHOULDN'T DO



Don't speak with
your mouth full



Don't eat off your knife





Never read while eating



Don't lick your spoon



**PLACES
TO GO TO**





Diqqat bilan qarang, hamma dominolarning bir-biri bilan bog'liqligi bor, faqat ikkitasidan tashqari. Uni qanday topsa bo'ladi?

ORTIQCHA SON
Yozilgan sonlardan qaysi biri ortiqcha?
Nima uchun?



RASMDA NIMA TASVIRLANGAN?
ULARNI TOPIB BO'YANG.



SO'Z SEHRI

Har bir gapu so'zimiz —
Go'yo oyna-ko'zgumiz.
Aytgan har so'zimizda
Ko'rnamiz o'zimiz.

Qanday yaxshi so'z-kalom
Odob boshi "Assalom"
Xush yoqadi hamma vaqt:
"Rahmat", "Xo'p-xo'p", "Marhamat".


POSBONLAR

Hur vatan farzandlari —
O'zbegim askarları.
Kuch-qudrat birlikdadır —
Mustahkamdir safları.

El-yurtga chin posbonlar,
Ko'ksi baland osmonlar.
Ular borki, kirolmas,
Yurtga yovlar, yomonlar.

Gurs-gurs qadam bosganda,
Havas bilan qarayman.
Men ham bir kun ulg'ayib,
El tinchligin asrayman.

D.Rajab



MAQOLLAR

Bolajonlar! Nuqtalar o'rniga kerakli
so'zlarni qo'ying va maqollarni yod oling.

Yantoqdan atir chiqmas, ...dan botir

Qo'rqding – tutilding, ... – qutulding

Ayron osh ..., nodon – bosh bo'lmas

Aql – ..., g'ayrat – yoshda, asl – toshda

Brovning holiga ... zinhor,
Sening ham holingga kulguvchilar bor

Boshda ... bo'lmasa, oyoqda tinim yo'q

... achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'yma

Donoga ... dovondan oshar

KITOB

Bilsang agar, sen o'rtoq,
Bilim kaliti kitob.
Qadrini bilsang shu tob,
U misli nurli oftob.

Yomon yo'ldan qaytarar,
Yaxshilikka yetaklar,
Nurlari ila seni,
Kuch-qudratga chorlar.

Kitob o'qisang ko'proq,
Murodingga yetarsan.
Kelajakda sen o'rtoq,
Yaxshi inson bo'larsan.

Barno MUSTANOVA,
229-maktabning 4^{"B"}-sinf
o'quvchisi. Uchtepa tumani.

OLMAVOY

Mevalarning ichida,
Eng chiroyli semizvoy.
Sen buncha ham shirinvoy,
Ey, olmavoy, olmavoy.


Dilnoza DONIYOROVA
229-maktabning 4^{"V"}-sinf
o'quvchisi. Uchtepa tumani.

*Yelimqog'ozdan
tulkichaning
rasmini olib,
yopishtiring va unga
qarab rasmni bo'yang.*





Uchta gugurt cho'pini shunday joylashtirish kerakki,
natijada to'qqizta kvadrat hosil bo'lsin.



*Qo'lingizning soyasini devorga tushuiring va
qanday tasvir hosil bo'lishini kuzating.*



Bir kulrang buzog'im bor,
Uydagilar undan bezor.
Bozorga olib borsam,
Topilmaydi xaridor.
(sizbodon)

Tuya desam, kattakon,
Usti kengdir, bir makon.
(ju)

Dalama-dala qidiradi,
Qo'y bilan echki oh uradi.
(u,oq)

Yo'l-yo'l to'ni bor,
Odam qo'rqrar turqi bor.
(yo,lbars)

Qanoti bor uchmaydi,
Quruqlikda yurmaydi.
(balqa)

Raqamlar ketma-ketligi asosida 1 dan 20 gacha yo'lni toping.



DUNYO AJOYIBOTLARI

ENG OG'IR MEVA

Bilasizmi bolajonlar, eng katta mevalardan biri – Hindistondagi non daraxtidagi meva hisoblanarkan. Uning ba'zi mevalari 40 kg. og'irlikda bo'ladi.



1	2	5	6	7	8	9	10
2	3	4	5	6	7	8	11
5	4	5	6	7	8	9	12
6	7	10	11	12	9	10	13
7	8	9	12	11	10	11	12
8	13	14	13	16	17	18	13
9	12	15	14	15	20	19	14
10	11	16	17	16	17	16	15


SAYO Hatchilarning DARAXTI

Ravenal daraxtining ikkita ajoyib xususiyati bor. Birinchi ajoyibligi daraxtning juda ham katta katta yoyilgan barglari bo'lsa, ikkinchig'aroyibligi sayo Hatchilar uchun kompas vazifasini bajaradi. Chunki bu daraxt har doim g'arbni mo'ljalga oladi.



Agarda uning barginiy erga to'g'ri qilib qo'yilsa, ikki qavatl uyning tomigacha yetadi. Barglari bitta qilib to'plansa, bahaybat yelpig'ichni eslatadi.

КРОССВОРД





1. По веткам скачет, да не птица, рыжая в не лисица.
2. Горностай гордится мехам, барс - отвагою своей.
3. В сумке не пакеты и не булки, я у мамы на прогулка.
4. Две горы по пустынней идут и идут, и не пьют, не едят и не устают.
5. Я пытаюсь очень ловко: у меня с собой кладовка.
6. День и ночь нору копаю, вовсе солнышка не знаю.
7. Мокнатенькая, усатенькая, по кладовкам, сметану ищет.

Ключевое слово:



Махмуда ИРГАШЕВА, 4 «Б» класс школа №110



Светофор

Красный свет, красный свет,
Что ты говоришь?

Я говорю:

«Стой-стой, сейчас!»

Желтый свет, желтый свет,
Что ты говоришь?

Я говорю:

«Жди-жди, сейчас!»

Зеленый свет, зеленый свет,
Что ты говоришь?

Я говорю:

«Иди-иди, приходи!»


14 ERKATOY



Oybek BAXTIYOROV,
4-maktab 1^{«D»}-sinf o'quvchisi.
G'ijduvon t.




Hojar NAIMOVA,
26-maktab 4^{«A»}-sinf o'quvchisi.
Ishtixon t.



Jamshid FAYZIYEV,
310-AFIDUM o'quvchisi.
Toshkent sh.



Dinora NAG'MATULLAYEVA,
34-maktab 4^{«B»}-sinf o'quvchisi.
Kattaqo'rg'on t.




Diyorbek KAMOLOV,
34-maktab 3^{«B»}-sinf o'quvchisi.
Kattaqo'rg'on t.




Zarina TURSUNXODJAYEVA,
19-maktab 4^{«B»}-sinf o'quvchisi.
Shayxontohur t.

Bo'sh o'tirma

MUSHUKCHA



Ushbu rasmning rangli qismlarini yelim-qog'ozdan kesib, o'z joyiga joylashtiring.



*Sahifalar O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining
Yoshlar bo'limi bilan hamkorlikda tayyorlandi.*

Ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy nashr

Jurnal oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:

"Matbuot info media servis" MChJ

Muharrir: Durdonaz AZIZOVA

Loyiha muallifi:

Nodir YUSUPOV

TAHRIR HAY'ATI:

Iqbol MIRZO (hay'at raisi)

Shermat YORMATOV

Bahodir SHAROFOV

Vohid LUQMON

Orif TO'XTASH

Nodir JONUZOQ

Mas'ul kotib:

Gavhar ABDURAHMONOVA

Jurnal 03.12.2013 y. O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 0832 raqamli guvohnoma olgan.

Tahririyat manzili:

100011. Toshkent shahri,
A.Navoiy ko'chasi, 16-th uy,
415-xona. Tel: 8(595) 196-58-34;

"Sano Standart" MChJ
bosmaxonasida chop ettildi.
Manzil: Toshkent sh. Olmazor tumani
Shiroq ko'chasi 100-uy.

Buyurtma raqamni -
Bichimi - 70/100 1/16
Nusxasi - 7000

Jurnal "Erkatoj" tahririyati kompyuterlarda
sahifalandi. Sahifalovchi:
Anvarjon MIRZAALIYEV

Jurnal qahramonlari suratlariдан foydalanan
tahririyat ruxsati bilan amalga oshirildi.

"KUTILMAGAN SOVG'A"

Aziz bolajonlar! Tahririyatimiz siz uchun yangi tanlov e'lon qiladi. Tanlov nomi "Kutilmagan sovg'a" deb nomlanadi. Tanlov sharti qanday, deysizmi? Juda od-diy. Siz, tahririyatimizga maktub yo'llasangiz bo'ldi. Shunda tanlov ishtirokchisiga aylanasz. Tanlov yakuni har oyda bir marta o'tkaziladi. Qanday deysizmi? Maktub egalarining ismi va familiyasi yozilgan qog'oz-chalar qutichaga solinib aralashtiriladi. Aralashtirilgan qog'ozlar ichidan uchtasi olinadi. O'shanda kimning ismi va familiyasi yozilgan qog'oz chiqsa o'shalar tanlov g'olib bo'ladi. G'oliblar tahririyatning kutilmagan sovg'asini qo'lga kiritadi. Qanday sovg'a, deysizmi? Bu esa sir. Sovg'ani sizga yetkazishganida bilasiz. Tanlovda doimo ishtirok etish uchun tahririyatga har oy bitta maktub yo'llasangiz bo'ldi. Har oyda o'tkaziladigan tanlov ishtirokchisi bo'laverasiz.

QANI BOLAJONLAR, OLG'A.

"KUTILMAGAN SOVG'A" SIZNI KUTMOQDA.

